

QO'SHMA GAPNING MAZMUNIIY TUZILISHIDA MODAL VA KOMMUNIKATIV UZVLARNING ISHTIROKI

Xoliqova Matluba Mardon qizi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti, Boshlang'ich ta'lim kafedrasida assistenti

Telefon raqam: +99899773-36-01 xoliqovamatluba5@gmail.com

Hayitova Muhabbat Shukrullayevna

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti, Boshlang'ich ta'lim kafedrasida assistenti.

Telefon raqam: +998999800-22-08.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14970756>

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada qo'shma gapning mazmuniiy tuzilishida modal va kommunikativ uzvlar muhim ahamiyatga egaligi, ular gap bo'laklari o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlarni shakllantirishi, nutqning mazmunini yanada aniqlashtirishi va kommunikativ maqsadni ifodalashi haqidagi fikrlar to'g'risida mulohaza yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** qo'shma gap, qo'shma gapning mazmuniiy tuzilishi, modal va kommunikativ uzvlari, tilshunoslik, sintaktik nazariya, til hodisalari, qo'shma gaplarning semantik tuzilishi.*

УЧАСТИЕ МОДАЛЬНЫХ И КОММУНИКАТИВНЫХ ЧЛЕНОВ В СОДЕРЖАТЕЛЬНОЙ СТРУКТУРЕ СЛОЖНОПОДЧИНЕННОГО ПРЕДЛОЖЕНИЯ

***Аннотация.** В данной статье рассматривается значение модально-коммуникативных элементов в смысловой структуре сложного предложения, то, что они образуют логические связи между частями предложения, уточняют содержание речи и выражают коммуникативную цель.*

***Ключевые слова:** сложное предложение, содержательная структура сложного предложения, модально-коммуникативные элементы, лингвистика, синтаксическая теория, языковые явления, смысловая структура сложного предложения.*

PARTICIPATION OF MODAL AND COMMUNICATIVE MEMBERS IN THE CONTENT STRUCTURE OF A COMPOUND SENTENCE

***Abstract.** This article discusses the important role of modal and communicative elements in the semantic structure of a compound sentence, the fact that they form logical connections*

between parts of a sentence, further clarify the content of speech, and express a communicative purpose.

Key words: compound sentence, semantic structure of compound sentences, modal and communicative elements, linguistics, syntactic theory, language phenomena, semantic structure of compound sentences.

KIRISH. Hozirgi zamon jahon tilshunosligi qo‘shma gaplarni o‘rganish yuzasidan katta yutuqlarga erishdi. O‘zbek tilshunosligida ham qo‘shma gap va uning tabiati masalasi maxsus o‘rganildi. Ammo uzoq vaqt davomida qo‘shma gaplar, asosan, bir jihatdan tadqiq etildi.

Qo‘shma gap haqidagi sintaktik nazariyalar, asosan, rus tilshunosligida shakllangan qo‘shma gap nazariyalari qolipi asosida yaratildi. Buning natijasida qo‘shma gaplar, asosan, shakliy tuzilishi asosida o‘rganildi, qo‘shma gaplarning semantik tuzilishi masalasi ilmiy tahlildan chetda qoldi. Tabiiyki, bunday yo‘l til hodisalarini to‘g‘ri tushunishga imkon bermaydi.

Faqat so‘nggi yillardan boshlab qo‘shma gaplarni o‘zbek tilining ichki xususiyatlarini hisobga olgan holda tadqiq etishga jiddiy kirishildi.

ASOSIY QISM. Har qanday gap semantikasida propozitiv mazmundan tashqari, so‘zlashuvchining kommunikativ niyati va mumkin bo‘lgan modallikdan biri ishtirok etishi kerak bo‘ladi. Boshqacha aytganda, propozitsiyadan real gap mazmuniga o‘tish uchun propozitiv ramkadan tashqari, yana ikki ramkani – modallik va kommunikativ ramkani qo‘shish zarur bo‘ladi. Keying har ikki ramka har anday gap mazmuniy tuzilishining zaruriy uzvi hisoblanadi.[1]

Shunday qilib, har qanday gapning mazmuniy tuzilishi murakkab, ko‘p qirrali xarakterga ega bo‘lib, unda eng kamida uch uzv: 1) propozitiv, 2) modal, 3) kommunikativ uzvlar ishtirok etadi.

Agar gapning propozitiv (nominativ) va modal tomoni gapning in‘ikos etish semantikasini aks ettirsa, kommunikativ tomoni, birinchidan, so‘zlovchining kommunikativ niyatini ya‘ni shu gapdan ifodalangan obyektiv mazmun unsurlarining (elementlarining) ahamiyatlilik darajasini belgilashni (aktual bo‘laklarga ajratish), ikkinchidan, darak, so‘roq, buyruq, ifodlanishini o‘z ichiga oladi. Masalan, *Karim moskvaga ketdi* gapida propozitsiya ifodalashdan tashqari, so‘zlovchining kommunikativ niyati ham ifodalangan. Bu o‘rinda so‘zlovchining niyati Karimning harakati haqida ma‘lumot berishdir. Shuning uchun ham *Karim nima qildi?* so‘rog‘iga javob bo‘ladi. *Moskvaga Karim ketdi* gapida esa so‘zlovchining kommunikativ niyati yana boshqa – kimning ketganligi haqida ma‘lumot berishdir.

Moskvaga kim ketdi? so‘rog‘iga javob bo‘ladi *Karim Moskvaga ketdi* gapida esa so‘zlovchining kommunikativ niyati harakatning yo‘nalishi haqida ma‘lumot berishdir. Bu o‘rinda *Karim qayerga ketdi?* so‘rog‘iga javob bo‘ladi [2].

Aktual vazifa nuqtayi nazaridan gapni tashkil etuvchi unsurlar tema (ma‘lum) va rema (yangi) qismlarga bo‘linadi. Gapning yangi qismi kommunikativ (axborot) nuqtayi nazaridan ahamiyatli bo‘ladi. Savol ana shu remani aniqlash uchun beriladi. Gapning tema qismi ma‘lum bo‘lganligi so‘roq gapda aynan takrorlanadi [3].

Masalan:

Tema (ma‘lum)	Rema (yangi)
Karim	Moskvaga ketdi
Moskvaga	Karim ketdi

Demak, gapning aktual bo‘linishi mantiqiy butunlik bo‘lgan hukmning bo‘laklanishi (subyekt va predikatga bo‘linish)ga o‘xshaydi [4]

Aktuallashtiruvchilar qatorida, tartibdan tashqari, boshqa vositalar ham bo‘lishi mumkin.

Ular ustuvor qiymat kasb etganda, tartibning roli susayadi. Muhim aktuallashtiruvchi vositalar qatoriga fonetik, leksik va grammatik aktuallashtiruvchilarni kiritish mumkin:

1. Prosodik aktuallashtiruvchi vosita. Bunday aktuallashtiruvchi vosita sirasiga mantiqiy urg‘u va u bilan bog‘liq bo‘lgan nutq tempi hamda pauza kiradi.

2. Leksik va grammatik aktuallashtiruvchi vosita. Ma‘lum bir so‘zning aktuallashtirishida o‘zbek tilidagi turli lug‘viy va grammatik shakl ham ishtirok etadi.

Prosodik aktuallashtiruvchi vositaga mantiqiy urg‘udan tashqari, emfatik urg‘u ham kiradi. Leksik va grammatik aktuallashtiruvchi vositaga esa mantiqiy urg‘uli so‘z bilan birga keluvchi faqat, yog‘iz, hatto, ham so‘zlari hamda -gina, -oq, -yoq qo‘shimchalari kiradi.

Nutqda qo‘shma gaplarni qo‘llashda so‘zlovchining kommunikativ niyati qo‘shma gap tarkibidagi grammatik vositalar – bog‘lovchilar, gap komponentlarida, ya‘ni predikativ konstruksiyalarda ishtirok etgan leksik birliklarning o‘zaro grammatik va semantik munosabatidan anglashilgan umumiy semantikaga bog‘liq ekanligini ko‘rish mumkin. Bundan tashqari, o‘zbek tilida so‘zlovchining kommunikativ niyatini turli xil leksik-grammatik vositalar yordamida ham ifodalash mumkin bo‘ladi.

Bu vositalar mantiqiy urg‘uli bo‘lak bilan birga kelib, mantiqiy yordamchi aktuallashtiruvchi vosita vazifasini bajaradi. Bularga *ham, faqat, yolg‘iz, hatto, o‘zi so‘zlari, -gina,*

-oq, -yoq affikslari oiddir... Yuqoridagi leksik va grammatik vositalar bilan birga kelgan bo‘lak mantiqiy urg‘u oladi va aktual ahamiyatli bo‘lak – rema hisoblanadi [5].

Masalan, *Marg‘ilonda ham shunday kelinimiz bor ekan, biz bilmay yurgan ekanmiz* (A.Qodiriy) gapi bog‘lovchisiz qo‘shma gap bo‘lishiga qaramasdan, so‘zlovchining kommunikativ niyati yaqqol sezilib turadi. Bunda asar qahramoni Yusufbek Hoji *Marg‘ilonda ham shunday kelinimiz bor ekan* gapida birgina *ham* yuklamasini qo‘llash orqali marg‘ilonlik kelin bilan toshkentlik kelinning mavqeyini tenglashtirib qo‘yadi. Ushbu qo‘shma gap qismlari o‘zaro ohang yordamida bog‘langan bo‘lib, ana shu ohang qismlar o‘rtasidagi zidlikni ifodalash bilan birga, so‘zlovchining kommunikativ niyatini ham ifodalashi mumkin. Bundan tashqari, rema qismini hosil qilishda ishtirok etgan aktual ahamiyatli bo‘lak *ham* so‘zlovchining kommunikativ munosabatini ifodalashda asosiy belgi hisoblanadi. Ko‘rinib turibdiki, gapda so‘zlovchining kommunikativ niyatini ifodalashda tema-rema qismlar munosabati asosiy ahamiyat kasb etadi va bunday munosabat gap tarkibida mantiqiy urg‘u stilidagi fokus orqali namoyon bo‘ladi.

Ammo mantiqiy urg‘u jumlaning mazmuniy tomoniga oid bo‘lsa, emfatik urg‘u hissiy tomoniga oid bo‘ladi. Emfatik urg‘uda ovoz tembri asosiy rol o‘ynaydi. Agar his ijobiy va salbiy turga bo‘linsa, ularning fonetik belgilari turlicha bo‘ladi...Shunday qilib, mantiqiy va emfatik urg‘u kommunikativ (aktual) vosita bo‘lib, bu urg‘u tushgan bo‘lak kommunikativ ahamiyatli bo‘lak – rema hisoblanadi. Gapning qolgan qismi esa tema bo‘ladi [6].

V.V.Bogdanovning ta’kidlashiga ko‘ra, agar gapda fokus bo‘lsa, u bir vaqtning o‘zida rema hisoblanadi. Odatdagi sharoitda rema o‘z ichiga bir va bir necha so‘zlarni birlashtirishi mumkin, fokus esa ularni minimumgacha qisqartiradi. Masalan, *Men qiziq kitoblarni o‘qiyman* jumlasida *qiziq* so‘zi fokus bo‘lsa, u – rema, boshqa so‘zlar esa tema hisoblanadi. Shu bilan birga fokus doimo presuppozitsiya ta’sir doirasida turadi. Xususan, mantiqiy urg‘u *qiziq* so‘ziga tushgan yuqoridagi jumlada *boshqa kitoblarni o‘qimayman* presuppozitsiyasi kelib chiqadi.

Qo‘shma gaplar yaxlit holda yoki qo‘shma gaplar tarkibidagi qismlar alohida holda so‘roq va buyruqni ifodalashi mumkin. Masalan, yaxlit holda: *Bog‘imizga kelgansiz va biz ekan gullarni ko‘rgansiz. (darak)*; *Bog‘imizga kelganmisiz va biz ekan gullarni ko‘rganmisiz? (so‘roq)*; Yoki *Bog‘imizga keling va biz ekan gullarni ko‘ring. (buyruq)* kabi ifodalanadi. Qismlari alohida holda: *Bog‘imizga keling, biz ekan gullarni ko‘rasiz. (buyruq+darak)*; *Bog‘imizga keldingizmi, biz ekan gullarni ko‘rib keting. (so‘roq+buyruq)*; *Bog‘imizga kelgansiz-u, biz ekan gullarni ko‘rmaganmisiz? (darak+so‘roq)*.

Soʻzlovchining kommunikativ niyati sodda gaplardan koʻra qoʻshma gaplarda va murakkab konstruksiyalarda yana-da kengroq ifodalanib turadi. Chunki sodda gaplarda bir predikativ asos boʻlib, aktual qismlar faqat ikkiga ajratiladi. Qoʻshma gaplarda tema-remamunosabatlari birdan ortiq boʻlishi mumkin.

Maʼlumki, har qanday gapning mazmuniy qurilishi murakkab xarakterga ega boʻlib, unda propozitiv, kommunikativ va modal uzvlar ishtirok etadi. Modal uzv gapning eng muhim birligi boʻlib, gap mazmunining eng asosiy qismidir.

Tilshunoslikda modallik deganda, odatda, gap mazmunining obyektiv borliqqa munosabati va soʻzlovchining gap mazmuniga boʻlgan munosabati tushuniladi.[7]

XULOSA. Nutq jarayonida anglashilgan nutqiy vaziyat bilan til ifodalarining mosligi soʻzlovchining propozitsiyani toʻgʻri anglagan holda oʻzining modal munosabatini, kommunikativ niyatini ayni mos lisoniy birliklarni qoʻllashi orqali namoyon boʻladi. Bunda soʻzlovchi qoʻshma gap konstruksiyalaridan foydalanganda qomusiy bilimlarini ishga solgan holda har bir til birligining semantik xususiyatini, uning nutq vaziyatiga mos keladigan shaklini tanlay bilishi lozim. Bundan tashqari, obyektiv borliqdagi voqea-hodisalarga toʻgʻri munosabatda boʻlib, subyektiv baho berishda hissiy va aqliy mushohadalarni toʻgʻri tashkil qilmogʻi lozim.

REFERENCES

1. N.M.Mahmudov Oʻzbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik assimetriya. Toshkent-1984. – B. 10.
2. A.Nurmonov, N.Mahmudov. Oʻzbek tilining mazmuniy sintaksisi. Toshkent-2007. – B.7.
3. R.Sayfullayeva va b. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent-2009. – B.361.
4. R.Sayfullayeva va b. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent-2009. – B.361.
5. A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Ahmedov, S.Solixoʻjayeva Oʻzbek tilining mazmuniy sintaksisi. Toshkent-1992. B.113.
6. A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Ahmedov, S.Solixoʻjayeva Oʻzbek tilining mazmuniy sintaksisi. Toshkent-1992. B.112.
7. A.Nurmonov, N.Mahmudov Oʻzbek tilining mazmuniy sintaksisi. (Oʻquv qoʻllanma) Toshkent-2007. B.57.